


OBUNA INDEKSI:

882

ERKATOY

Bolaligim – poshsholigim!

№1(19). 2015 y.
yanvar



O'YINLAR

ERTAKLAR

SCALLYWAG

ASKARLAR – BIZNING FAXRIMIZ, G'URURIMIZ!**O'zbekiston - Vatanim manim!**

Yurtimizning mard, jasur, elim deb, yurtim deb kecha-yu kunduz Vatan sarhadlarida hushyor turgan Vatanimiz posbonlari! Sizlarni "Erkatoy" jurnali ijodkorlari va mushtariylari nomidan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bilan chin dilimizdan muborakbod etamiz! Sizlarga mustahkam sog'lik, vatan himoyasi yo'lida ulkan muvaffaqiyatlar, shaxsiy hayotingizda esa baxt-saodat tilab qolamiz! Sizlar – bizning faxrimiz, g'ururimizsiz!



Olqor Damin

ASKAR AKAM

*Mening askar akam bor –
Yurtimizni qo'riqlar.
Chegaradan o'tolmas,
Hatto, shamol, bulutlar.
Akajonim singari,
Men ham askar bo'laman.
Vatanimni qo'riqlab,
Chegarada turaman!*



Yangi yil qo'shig'i

Allegretto

I. Muslim she'ri,
G'. Qodirov musiqasi.

Shod - lik - ka to'l - di bu - gun di - li

miz. Kel - di zo'r bay - ram Yan - gi yi - li - miz!

Kel - di zo'r bay - ram Yan - gi yi - li - miz!

Shodlikka to'ldi
Bugun dilimiz.
Keldi zo'r bayram:
Yangi yilimiz!

Sovg'alar oldik
Yana bir quchoq.
Qorbobomizdan
Dimog'imiz choq.

Keling bolalar,
Birga o'ynaylik!
Yangi yilda ham
Kuylab quvnaylik.

Bir podshoning ikki arzanda o'g'li bor ekan. Shahzodalar biron ish qilishmay, erka-tantiq bo'lib o'sishibdi. Ular ulg'aygan sayin ishtahalari bo'g'ilib, bir piyola choy ham ichmas bo'lib qolishibdi. Ularning rangi za'faron bo'lib, kasalmand odamlarga o'xshab qolishibdi. Podsho o'z mamlakatidagi hamma tabiblarni yig'ib o'g'illarini davolashni buyuribdi. Ammo tabiblar qancha chora-tadbir qilishmasin, shahzodalarning ishtahasi ochilmabdi, yuziga qon yugurmabdi. Shahzodalar qo'shni mamlakatga borib ishtaha dorisi topib kelmoqchi bo'lishibdi. Podsho rozilik berib, ularni yo'lga kuzatibdi. Shahzodalar yo'lda ketishayotganida ketmon chopayotgan bir cholga duch kelishibdi. Shahzodalar otdan tushib cholga salom berib, undan so'rashibdi:

– Buva, bizning ishtahamiz bo'g'ilib, ovqat yeyolmaydigan bo'lib qoldik. Bizga ishtaha dorisi sotiladigan shahar qaydaligini aytib berolmaysizmi?

– Aytib berardimu, biroq hozir vaqtim tig'iz-da. Ishim juda ko'p. Bugun mana shu dalani tekislab, ertaga bug'doy sepishim kerak. Shu ishlardan qutulsam, sizlarga o'sha dorini o'zim topib beraman, – debdi chol.

– Bo'lmasa siz uyingizga borib donni olib keling. Biz sizga qarashib, tezroq ishingizni

bitkazaylik, – deyishibdi shahzodalar. Ular cholning ketmonni olib ishga tushib ketishibdi. Chol uyiga borib don olib kelibdi. Shahzodalar qora terga botib rosa ishlashibdi. Kechqurun horib-charchagan shahzodalarni chol uyiga boshlab kelibdi. Ungacha kampir osh qilib turgan ekan. Shahzodalar palovni talashib-tortishib yeyishibdi. Biroq qorinlari uncha to'yabdi. Yana so'rashga iymanshibdi.

– Buva, palov juda shirin bo'libdi. Unga qanaqa dori qo'shgansiz? – deb so'rashibdi shahzodalar.

– Oshga hech qanaqa dori solganim yo'q, sizlarni ishga soldim, – debdi chol. Sizlar ishlatgan ketmon bo'g'ilgan ishtahaning dorisi.



g

g

g' □ □

□ □ g' - □ □ □

v

v

□ □ □ - v □ □

v □ - □ □ - □ □ - □ □ □

f

f

f □ □

f □ □ - □ □ - □ □ □



z

z

z □ □ - □ □

z □ □ - □ □ □

x

x

□ □ - x □ □

x □ - □ □ □



' (tutuq belgisi) San'at
e'tibor

□' - □ □ □

□ □' - □ □ □

Kichik bolakay dadasiga:

— Dada, siz bilan endi chana uchgani bormayman.

— Tort, o'g'lim, tort!

O'qituvchi Validan so'radi:

— Odamning qaysi tishi oxiri chiqadi?

— Sun'iy tishi.

Geografiya darsida:

— Karimjon, bizga Panama kanali haqida gapirib ber-chi!

— Ustoz, televizorimiz bunaqa kanalni ko'rsatmaydi-da...

Oyisi o'g'lidan so'radi:

— Muzlatgichda ikki bo'lak tort bor edi. Hozir uning bir bo'lagi qolibdi, xolos. Sen buni menga tushuntirib bera olasanmi?

— Albatta! Qorong'u edi, shuning uchun ikkinchi bo'lagini ko'rmay qolibman-da, afsus...

Bir oilada bolakay yetti yil gapirmabdi. Nonushtada bolakay birdan:

— Nega mening choyimga qand solmadingiz?

Xursand bo'lgan ota-ona:

— Nega sen avval gapirmasding?

Bolakay:

— Avval bunga hojat yo'q edi.

Kimyo darsi. O'qituvchi:

— Gulnora, sen tayyorlagan aralashmaning ranggi qanaqa?

— Qizil.

— Tog'ri. O'tir, besh.

— Shaxlo, seniki-chi?

— Sarg'ish.

— Biroz noto'g'ri. O'tir, to'rt.

— Vali, sen tayyorlagan aralashmaning ranggi qanaqa?

— Qora.

— Senga ikki. Bolalar, yotinglar!



THE 14TH OF JANUARY

This elephant's got five legs



I want to be a soldier like my brother. He is serving in the Army now. I would like to congratulate him on this day.



- Akmal, this elephant's got five legs!
- Which elephant?
- The big one.
- No, it hasn't. it's got four legs.
- Look! One, two, three, four, five!
- That's not a leg! it's a trunk.



A LITTLE BIRD

Fly, little bird, fly,
Fly into the blue sky!
One, two, three,
You are free.



RIDDLES

What room is never entered?

Answer: A Mushroom

What has a ring, but no finger?

Answer: A telephone

What can clap without any hands?

Answer: Thunder

What has four legs, but can't walk?

Answer: A table

ANSWER THE QUESTIONS.

1. Where are they going?

2. What's Sobir looking at?

3. How many elephants are there?

4. How many legs have elephants got?

AKALARIMDAN O'ZIB KETDIM

Men ikki akam bilan,
Faxrlanib yurardim.
Sportda bellasha ham –
Yonlarida turardim.
O'ylab ko'rsam ulardan –
Ko'p narsani olibman.
Buni qarang, men bugun –
Akamlardan g'olibman!

Bilasizmi, bu she'rni bolalar shoiri Orif To'xtash men haqimda yozgan. Sen kim, deysizmi? Men Umar Hayotov, 4 yoshdaman.

Men sportning "Turon" yakkakurashi bo'yicha shug'ullanaman. Akalarimga qiziqib, men ham ushbu sport turini tanladim. Akam Abubakir 59-maktabning 2-"B" sinfida o'qiydi. Akam katta farzand bo'lganligi uchun dadam akamga "doim ukalaringga o'rnak bo'lishing kerak" - deb aytadilar.

Orzuim:
Kelajakda askar bo'lib,
Ona vatanimga xizmat qilishdir!



Bu kichik akam Abdulloh. Bu yil maktabga boradi.



Men yaqinda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Turon" yakkakurashi bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Abubakir akam II-darajali diplom, Abdulloh akam III-darajali diplom bilan taqdirlandilar. Bunday yutuqqa erishish biz uchun katta mas'uliyat va faxrdir. Buning uchun, avvalo, ota-onamga, kurash bo'yicha ustozim Yo'ldoshev Jamol akaga katta rahmat aytaman.

Gavhar ABDURAHMONOVA tayyorladi.

Yangi yil quvonchlarga boy, olam-olam taassurotlar... Bolalarning quvonchiga quvonch, shodligiga shodlik ulashish hamda ularning vaqtini yanada zavqli o'tkazish maqsadida "Erkatoy" jurnali ham astoydil harakat qilmoqda.

Shu bois g'aroyibotlarga boy, ko'ngillarni hushnud qiladigan, qishgi ta'tilga o'zgacha mazmun baxsh etadigan "Erkatoyning yangi yildagi sarguzashtlari" nomli ertak-tomoshasi Samarqand shahridagi Hamid Olimjon nomli drama teatri tomonidan tashkil etildi. Ushbu tomosha bolajonlarimiz tomonidan qizg'in kutib olindi.





JALOLOVA Umida, 588-bog'cha tarbiyalanuvchisi. Toshkent sh.



ERKINOVA Nozima, 26-maktab 5-^{ta} sinf o'quvchisi. Farg'ona t.



AHADJONOV Anvar, 79-maktab 2-^{ta} sinf o'quvchisi. Chilonzor t.



JUMAYEVA Shahrizoda, 4-maktab 6-^{ta} sinf o'quvchisi. Kitob t.



ASHIRQULOV O'tkirjon, 63-maktab o'quvchisi. Samarqand sh.



NARZIYEV Behruz, Buxoro viloyati Saribozor qishlog'i 21-uy.



Fotima Zuhra urishadi,
merosini bo'lishadi

qaychi

O'zi bitta, ko'zi mingta

uzunlik

Bir ko'zli kampir,
Ko'ylakka gul tikar

uzi



Shamolday uchqur,
Yo'q oyog'i va qo'li.
Ko'zga ko'rinmas,
Charog'on yurgan yo'li.

elektr toki



Uyimizga in qurgan,
Tilla qush-u tilla qush.
Kech kirganda porlasang,
Odamlarning ko'ngli xush.

lampochka

Bir ajoyib ishxonona,
Ichi doim qishxonona

muzlatgich



Tinmas bitta, tinglar mingta

radio



Radio desam, radio emas,
Kino desam, kino emas.
Eshitasan so'zini,
Ham ko'rasan o'zini.

televizor



QUYONIM

Quyoni, hoy, quyoni!
 Uzun quloq quyoni.
 To'xtamay sabzi yeysan,
 Dikir-dikir sakraysan.
 Quyoni quyoni,
 Miti oppoq quyoni.




RADJABOV Ravshan,
 53-maktab 4-^o sinf
 o'quvchisi. Samarqand sh.

Chalkashgan elektr simlari orqali yurib, elektr tokiga qaysi texnik vosita ulanganini toping



Aralash-quralash

1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni matematik amallar bo'ylab to'g'ri joylashtiring va markazdagi javobni toping




	+		=	
+	?			-
=				=
9				-

Bitta gugurt donasini o'rnini almashtirib, to'g'ri javobni hosil qiling

$$\square + \square - 4 = \square$$

Rasmdan 15 ta to'g'ri to'rtburchakni toping



ОТЫЩИ СЛОВО


Сама – как побелённая.
Коса-краса зелёная.
Лесная дева эта
В сказаниях воспета.



Осень в сад ко мне пришла,
Гроздья алые зажгла,
Зимой птички будут кушать,
Я их песни буду слушать.



Он живёт в дубраве, в роще.
Не придумать дома проще.
Коренаст зеленый чуб.
Тверд, красив, могучий ...



Сегодня день
погож и ясен!
И так красив
тенистый ...



1 время суток
2 впускает летний ветерок
3 мы слышим, когда шутят
4 самый красивый цветок

А	Р	О	Н	О
	А	З	К	О
	Т	Р	С	М
	У	О	Х	Е

1 время года
2 выпадает зимой
3 новогодняя красавица
4 съезжаем с горки

Б	З	Г	Е	Н
	И	М	К	С
	Ё	А	С	И
	Л	К	А	Н

1 греет горло
2 овощное блюдо
3 жёлтый фрукт
4 мурлычит

В	Ш	Р	А	Г
	А	Р	Л	У
	К	Ф	И	М
	О	Т	Н	О

У лесной красавицы
Зелёные ресницы.
Платьице колючее,
Зелёное пахучее...



'Kutilmagan sovg'a'

tanlovining yanvar oyi g'oliblari
bilan tanishing:

1. Umaraliyev Ravshan

Toshkent shahar Shayxontohur tumani
42-maktab 4-"V" sinf o'quvchisi

2. Dilmurotov Lazizbek

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
4-maktab 4-"A" sinf o'quvchisi

3. G'aybullayeva Feruza

Buxoro viloyati Kogon tumani
Sheyxon qishlog'i 18-uy

*Aziz bolajonlar! Siz ham tahririyatga
maktub yozing va tanlovda ishtirok
eting. Tanlovda g'olib bo'lib,
"kutilmagan sovg'a" egasiga aylaning.*


*★ Maktubda manzilingiz va maktab
raqamingiz aniq ko'rsatilgan bo'lsin.*

**G'oliblarga "kutilmagan sovg'a"
pochta orqali jo'natiladi. Sovg'amiz
sizga yoqadi, deb o'ylaymiz.**

*Yelimqog'ozdan
tulkichaning rasmini olib,
yopishtiring va unga
qarab rasmni bo'yang.*



Tana qismi



Bosh qismi



Ushbu rasmning rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib olib, o'rniga joylashtiring.



Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

MUASSIS:

"Matbuot info media servis" MChJ

Bosh muharrir, loyiha muallifi:

Nodir YUSUPOV

TAHRIR HAY'ATI:

Iqbol MIRZO (hay'at raisi)

Shermat YORMATOV

Bahodir SHAROFOV

Vohid LUQMON

Orif TO'XTASH

Nodir JONUZOQ

Rassomlar:

Najot JO'RABOYEV

Aziz JABBOROV

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

Tahririyat manzili:

100011. Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 16-^{kv} uy, 415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

"Sano Standart" MChJ bosmaxonasida chop etiladi. Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami -
Bichimi - 70/100 1/16
Nusxasi - 7000

Jurnal "Erkatoy" tahririyati kompyuterlarida sahifalandi. Sahifalovchi:
Elyor ABDUSALOMOV

Jurnal qahramonlari suratlaridan foydalanish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirildi.

ERKATOY



O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov:
**"ERKATOY" — OILAMIZNING
SEVIMLI JURNALI!**

